

**TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA PEDAGOGIK  
FAOLIYATGA TAYYORLASH**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11641625>

**Mo'ydinova Durdona Qahramonjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini xorijiy tajribalar asosida bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish borasida so'z yuritilgan. Shuningdek, xorij tajribalari orqali kelajak avlodni tarbiyalash, yetuk kadr sifatida*

**Kalit so'zlar:** *xorijiy tajribalar, bilim, ko'nikm, malaka, Finlandiya ta'lim tizimi, kompetent, pedagogik jarayon.*

**ПОДГОТОВКА ПЕДАГОГОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ  
ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА**

**Аннотация:** *в данной статье говорится о развитии знаний, квалификации и умений будущих педагогов на основе зарубежного опыта, повышении их научного потенциала. Кроме того, обучение следующего поколения на основе зарубежного опыта в качестве зрелых сотрудников.*

**Ключевые слова:** *зарубежный опыт, знания, умения, компетентность, финская система образования, компетентность, педагогический процесс.*

**PREPARATION OF EDUCATION TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY BASED ON  
FOREIGN EXPERIENCES**

**Abstract:** *this article talks about the development of knowledge, qualifications and skills of future education teachers based on foreign experiences, increasing their scientific potential. Also, training the next generation through foreign experiences as mature staff*

**Key words:** *foreign experiences, knowledge, skills, competence, Finnish education system, competent, pedagogical process.*

Tarbiya fani o'qituvchilarini xorijiy tajribalar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha yondashuv, o'qituvchilarni yuqori sifatli, zamonaviy va global talablarga javob beradigan darajada tayyorlashga yordam beradi. Shu bilan birga ohirgi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida (iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda ham) ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yuqori malakali pedagog kadrlar tanqisligi kuzatilmoqda. Respublikamizda ham kadrlar bo'shlig'ini to'ldirish, shu jumladan, umumta'lim

maktablarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish ob'ektiv zarurat. Ushbu masalalarni hal qilish mexanizmlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va ushbu ishning tadqiqot mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.<sup>34</sup>

Bir qator xorijiy mamlakatlarning tajribalari orqali biz o'z amaliyotimizga tatbiq etishimiz maqsadga muvofiq. Shu jumladan Finlandiya ta'lim tizimidagi bir qancha metodikalarni misol tariqasida olamiz. Individuallik ya'nikim, har bir bola uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallik o'quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg'ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta'lim materialiga ham tegishli. Bir sinfnig o'zida darsda bolalar turli murakkablikdagi mashqlarni bajarishadi. Baholash tizimi ham personal darajaga muvofiq. Agar "odatiy" mashq a'lo bahoga bajarilsa, ertasiga yuqoriroq darajali mashq beriladi, mobodo uddasidan chiqa olmasa, hechqisi yo'q, yana oddiy mashq beriladi.

Amaliyot: "Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi finlar. Shuning uchun Finlyandiyadagi maktablarda imtihonlar yo'q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o'qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta'lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o'tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o'qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg'urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko'rishmaydi.

Ishonch: Birinchidan, maktab xodimlari va o'qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo'q, o'quvchilarga ta'lim berishga doir turli uslublarni o'rgatuvchilar ham yo'q. Mamlakatda ta'lim dasturi yagona, faqat umumiy tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o'zi to'g'ri deb bilgan uslubni qo'llaydi. Ikkinchidan, bolalarga bo'lgan ishonch: darslarda o'quvchi o'zini qiziqtirgan ish bilan shug'ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o'quv filmi namoyish etilayotgan bo'lsa-yu o'quvchiga buning qizig'i bo'lmasa, u kitob o'qib o'tirishi mumkin. O'quvchi o'zi uchun nima foydali ekanini o'zi tanlaydi.

Istak-xohish: O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qarataishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo'lmagan, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir!

Mustaqillik: umuman olganda, Finlyandiya maktabida ta'lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo'ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o'tkazib yuborilgan darslarda qayta o'tirishga to'g'ri keladi. Masalan, o'qituvchi 6-sinf o'quvchisi uchun o'z jadvalidan "bo'sh soat"ni belgilaydi yoki boshqa sinfnig darsiga kirib o'tiradi. Dars qiladimi, zerikib o'tiradimi, o'ziga havola. Boshqa

<sup>34</sup> Ibragimov Abdimalik Gapparovich "Xorij tajribalari asosida O'zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari" nomli ilmiy maqola. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 1128-1137 bet. 2022-yil

guruxdagilarga xalaqit bersa, bu hisobga o'tmaydi, yana boshqa soatda qayta o'tirishga to'g'ri keladi.

2019-yil 23-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev respublikamiz xalq ta'limi xodimlari bilan qilgan muloqotida "...bugungi ustoz shogirdlarini o'z orqasidan ergashtira olishi lozim, agar ergashtira olmasa u ustoz emas", – degan fikrlarni ta'kidlab o'tdilar. Demak, bugungi ustoz o'z shogirdlari oldida tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishongan bo'lishi lozim. Kasbiy faoliyatga (kompetent) ega bo'lish uchun esa, quyidagilarga e'tibor berishi a) kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish; b) yangidan-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; c) hamkorlik bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish. O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligiga ham muhim talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari yaxshi rivojlangan, ko'rish qobilyati yaxshi bo'lishi, uzoq vaqt tik tura olishi va o'quvchilar bilan chiroyli muloqotga kira olishi lozim. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida ham o'qituvchining nutq gigiyenasiga doir maslahatlar bergan: "Uzoq muddat davomida qattiq tovush bilan baqirish ko'p miqdorda havoni tashqariga chiqarishni talab qiladi. Bularning har ikkisi ham xavflidir". Jamiyatda ro'y berayotgan barcha islohotlar, ta'limning yangi bosqichlarga ko'tarilishi, ilmfan texnikasining jadal rivojlanishi, eng asosiysi yurtimizda ijod va Prezident maktablarining tashkil etilishi ham ta'lim tizimidagi innovatsiyalar hisoblanadi. Shuningdek, bugungi pedagog nafaqat ta'lim beruvchi, balki shu bilan bir qatorda tarbiyachi hamdir. Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga qo'yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib boshlang'ich ta'lim yo'nalishining DTS va Malaka talablari o'rganildi.<sup>35</sup>

#### FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: Darslik. – T.: Sano-standart, 2017.
2. Umumiy pedagogika: Darslik / O.Musurrnonova va boshq. I-qism. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.
3. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni //

<sup>35</sup> I.I.Tuychiyeva "XORIJYIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNI HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI" "Ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2024-yil 20-fevral 157-159-bet.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – 6-son. – 70-modda. – 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

6. Axrarova Z., Sadikova Sh., Sodikov U., Allayarova S., Shodmonov Sh. Umumiy pedagogika: Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Mumtoz so'z, 2020. – 331 b.

7. Ibragimov Abdimalik Gapparovich "Xorij tajribalari asosida O'zbekistonda pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish masalalari" nomli ilmiy maqola. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 1128-1137 bet. 2022-yil